

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№6

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025 IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
150 sahifa, iyun, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- | | |
|--|--|
| <p>05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi</p> <p>05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari</p> <p>05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash</p> <p>05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari</p> <p>05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti</p> <p>05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi</p> <p>05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari</p> <p>05.01.07 – Matematik modellashtirish</p> <p>05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt</p> <p>05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik</p> <p>05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari</p> <p>05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti</p> <p>05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash</p> <p>05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi</p> <p>05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari</p> <p>05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari</p> <p>05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi</p> | <p>05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish</p> <p>05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar</p> <p>05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari</p> <p>10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik</p> <p>10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti</p> <p>08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi</p> <p>08.00.02 – Makroiqtisodiyot</p> <p>08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti</p> <p>08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti</p> <p>08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti</p> <p>08.00.06 – Ekonometrika va statistika</p> <p>08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit</p> <p>08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit</p> <p>08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti</p> <p>08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti</p> <p>08.00.11 – Marketing</p> <p>08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot</p> <p>08.00.13 – Menejment</p> <p>08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari</p> <p>08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti</p> <p>08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya</p> <p>08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati</p> |
|--|--|

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Абдор Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing.....	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarmulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norqochqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faollikni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni	135
Asadullina Nailya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	



AXOLI DAROMADLARINING TURMUSH FAROVONLIGIGA TA'SIRI

Berdibekov A.

TDIU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholining daromadlar darajasining ularning farovonligiga ta'siri iqtisodiy tahlil asosida o'rganiladi. Daromad – bu aholining iste'mol, jamg'arma va investitsiya imkoniyatlarini belgilovchi asosiy omil bo'lib, uning o'sishi farovonlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda daromadlar tarkibi, ularning o'sish omillari, hududlar va ijtimoiy guruhlar kesimidagi tafovutlar hamda farovonlikni o'lchash mezonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, real daromadlar bilan hayot sifati o'rtasidagi bog'liqlik statistik ma'lumotlar asosida iqtisodiy model yordamida baholanadi. Yakunda, aholining daromadlarini oshirish orqali farovonlikni ta'minlash bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: daromadlar darajasi, farovonlik, real daromad, iqtisodiy tahlil, ijtimoiy tengsizlik, hayot sifati.

Abstract: This article analyzes the impact of income levels on population welfare based on economic analysis. Income is a key determinant of individuals' ability to consume, save, and invest, and its growth has a positive effect on welfare indicators. The study examines the composition of income, drivers of its growth, disparities across regions and social groups, and the criteria for measuring welfare. Moreover, the relationship between real income and quality of life is evaluated using statistical data and an econometric model. Finally, the paper offers policy recommendations aimed at enhancing welfare through increased household income.

Keywords: income level, welfare, real income, economic analysis, social inequality, quality of life.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние уровня доходов населения на их благосостояние на основе экономического анализа. Доход является ключевым фактором, определяющим возможности потребления, сбережений и инвестиций населения, а его рост оказывает положительное влияние на показатели благосостояния. В исследовании рассматриваются структура доходов, факторы их роста, региональные и социальные различия, а также критерии оценки уровня благосостояния. Кроме того, взаимосвязь между реальными доходами и качеством жизни оценивается с использованием статистических данных и эконометрической модели. В заключение предложены рекомендации по обеспечению благосостояния населения через рост доходов.

Ключевые слова: уровень доходов, благосостояние, реальные доходы, экономический анализ, социальное неравенство, качество жизни.

KIRISH

Iqtisodiy taraqqiyotning asosiy mezonlaridan biri — aholining farovon hayot kechirishini ta'minlashdir. Farovonlik — bu nafaqat daromadlar miqdori, balki odamlarning ta'lim, sog'liqni saqlash, yashash sharoiti, ijtimoiy himoya, atrof-muhit sifati va ijtimoiy faollik darajasini o'z ichiga olgan keng ko'lamlı tushunchadir. Daromad esa farovonlikning markaziy iqtisodiy omili bo'lib, u har bir fuqaroning kundalik ehtiyojlarini qondirishda, hayot sifatini yaxshilashda, shuningdek, iqtisodiyotda faol ishtirok etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, daromadlar darajasining aholining umumiy farovonligiga qanday ta'sir qilishi masalasi iqtisodiy tahlil uchun dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillaridan boshlab iqtisodiyotni liberallashtirish, bozor mexanizmlarini joriy etish va ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash orqali aholining real daromadlarini oshirishga qaratilgan izchil siyosatni amalga oshirib kelmoqda. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab olib borilayotgan chuqur islohotlar fonida daromad manbalarini ko'paytirish, aholining bandligini ta'minlash, soliq yuki va byurokratik to'siqlarni kamaytirish orqali iqtisodiy faollikni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada, so'nggi yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar hajmi o'sib bormoqda. Biroq bu o'sish jamiyatning barcha qatlamlariga bir xilda ta'sir ko'rsatmayapti. Ayniqsa, daromadlar bo'yicha hududlararo tafovutlar, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi nomutanosiblik va inflyatsiya sur'atlarining daromadlarga nisbatan tez o'sishi farovonlikni to'liq ifodalash



imkonini bermayapti.

Bundan tashqari, rasmiy va norasmiy daromadlar nisbati, bandlik shakllari (rasmiy va norasmiy), davlat tomonidan ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati kabi omillar ham aholining farovonligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, daromadlar tarkibidagi o'zgarishlar — mehnatga haq to'lash, ijtimoiy nafaqalar, subsidiyalar, transferlar va xo'jalik faoliyatidan olinayotgan foydaning tarkibiy nisbati — real farovonlikni shakllantiradi. Farovonlikka erishishda faqat daromadlar miqdori emas, balki ularning barqarorligi, adolatli taqsimoti, xarid qobiliyati va davlatning ijtimoiy siyosati orqali qo'llab-quvvatlanishi ham muhim rol o'ynaydi.

Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyoti misolida aholi daromadlari darajasi va farovonlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Analitik yondashuv orqali turli daromad manbalari, ularning o'sish dinamikasi, real daromadlar va inflyatsiya o'rtasidagi nisbat, aholining xarid qobiliyati, iste'mol xarajatlari tarkibi hamda farovonlik indekslariga ta'siri chuqur o'rganiladi. Shuningdek, iqtisodiy o'sish va daromadlar tengsizligining farovonlikka ko'rsatadigan bevosita va bilvosita ta'siri ham tahlil etiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi — aholining daromadlarini oshirish orqali ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydigan samarali iqtisodiy mexanizmlarni aniqlash, ularning amaldagi natijadorligini baholash hamda bu borada O'zbekiston tajribasini xalqaro me'zonlar asosida ilmiy tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aholi farovonligini o'rganishda daromadlar darajasi asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida qaraladi. Jahon iqtisodiyotida ushbu masalaga oid ilmiy izlanishlar bir qancha yondashuvlarni shakllantirgan bo'lib, ular orasida mikroiqtisodiy, makroiqtisodiy va institutsional yondashuvlar ajralib turadi.

Farovonlik va daromad o'rtasidagi bog'liqlik masalasida Amartya Senning ishlari alohida e'tiborga loyiq. U o'zining "Qobiliyatlar yondashuvi" ("Capability Approach") nazariyasida farovonlikni faqat daromadlar orqali emas, balki insonning hayotiy imkoniyatlari — sog'liq, ta'lim, xavfsizlik kabi omillar orqali baholash zarurligini ta'kidlaydi (Sen, 1999). Uning fikricha, daromad — bu imkoniyatlarni kengaytiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi, biroq u o'zi mustaqil holda farovonlikni ta'minlay olmaydi.

Simon Kuznets esa o'zining mashhur "Kuznets egri chizig'i" gipotezasida iqtisodiy o'sishning dastlabki bosqichlarida daromadlar tengsizligi ortishini, keyingi bosqichlarda esa uning kamayishini asoslaydi. Bu g'oya ko'plab rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, O'zbekiston misolida ham dolzarbdir.

Joseph Stiglitz, Jean-Paul Fitoussi va Amartya Sen tomonidan tayyorlangan "Mamlakatlarning taraqqiyotini o'lchashda YaIMdan tashqari indikatorlar" nomli hisobotda farovonlikni baholashda daromadlarning sifati, ularning taqsimoti va barqarorligi kabi omillarni hisobga olish zarurligi ta'kidlangan (Stiglitz et al., 2009).

OECD va UNDP tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan Inson taraqqiyoti indeksi (HDI), Multidimensional Poverty Index (MPI) kabi ko'rsatkichlar daromad va farovonlik o'rtasidagi kompleks bog'liqlikni namoyon etadi. Ular daromadning faqat miqdori emas, balki uning inson salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilishi zarurligini alohida ta'kidlaydi.

O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlari ham daromadlar va farovonlik o'rtasidagi bog'liqlikni nazariy va amaliy jihatdan o'rganishga qaratilgan. G'.K. Karimov o'z izlanishlarida aholi real daromadlari va iste'mol xarajatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tahlil qilgan. Uning fikricha, real daromadlarning o'sishi oziq-ovqat, ta'lim va sog'liqni saqlash xarajatlarining ortishiga olib keladi, bu esa farovonlik darajasining oshishini anglatadi.

X.Q. Xolmatov daromadlar taqsimoti va ijtimoiy tengsizlik muammolarini tahlil qilgan holda, iqtisodiy o'sish jarayonida past daromadli qatlamlarning holatini yaxshilashga qaratilgan fiskal siyosat vositalarini ishlab chiqishni taklif etadi.

S.S. Jo'rayev esa bandlik va daromadlar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil etgan. U norasmiy bandlik holatlarining daromadlar ustidan nazoratni zaiflashtirishi natijasida farovonlik darajasining past bo'lib qolishini asoslaydi.

M. Islomov o'z ilmiy ishlarida qishloq joylarda daromad manbalarining cheklanganligi, infratuzilma yetishmovchiligi farovonlikning hududiy tafovutlariga olib kelishini ko'rsatadi.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM) tomonidan 2022–2024-yillarda o'tkazilgan tahlillarda aholi daromadlari strukturasi ijtimoiy transferlar va mehnatga haq to'lashning roli, iste'mol narxlarini o'sishi fonida real daromadlar dinamikasi keng yoritilgan. Hisobotlarda farovonlikka ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida uy xo'jaliklarining xarid qobiliyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, adabiyotlar tahlili daromadlar va farovonlik o'rtasidagi bog'liqlik murakkab, ko'p omilli va ko'p darajali ekanligini ko'rsatmoqda. Jahon tajribasi ushbu bog'liqlikni o'rganishda nafaqat daromad miqdorini, balki uning taqsimoti, barqarorligi, inson kapitaliga ta'siri kabi jihatlarni inobatga olish zarurligini ta'kidlaydi. Mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlari esa O'zbekiston sharoitida daromadlarning tarkibi, hududiy tafovutlar va ijtimoiy siyosat mexanizmlari orqali farovonlik darajasini oshirish muhimligini asoslab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aholi farovonligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni empirik aniqlash maqsadida, ushbu maqolada O'zbekiston bo'yicha 2020–2024-yillardagi panel ma'lumotlar asosida oddiy chiziqli regressiya modeli (OLS – ordinary least squares) qo'llanildi. Tadqiqotda farovonlik darajasi sifatida Subjective Well-being Index (WI) indikatorini asosiy bog'lanma o'zgaruvchi sifatida tanlab olindi.

Mustaqil o'zgaruvchilar sifatida quyidagilar belgilandi:

Aholi jon boshiga real daromad (RDI), logarifmik shaklda ($\log RDI$),

Ishsizlik darajasi (%),

O'rtacha umr davomiyligi (Life Expectancy),

Ijtimoiy ishonch darajasi (Social Trust — indeks shaklida, 0–1 oralig'ida).

Shu asosda quyidagi funksional regressiya modeli shakllantirildi:

$$WI_{it} = \alpha + \beta_1 \cdot \log(RDI_{it}) + \beta_2 \cdot Unemployment_{it} + \beta_3 \cdot LifeExp_{it} + \beta_4 \cdot Trust_{it} + \varepsilon_{it}$$

(1)

Bu yerda:

- W -i- hududda t-yilda aholi farovonligi indeksi,
- Log(– real daromadlarning logarifmik qiymati,
- ishsizlik darajasi (%),
- o'rtacha umr davomiyligi (yillarda),
- ijtimoiy ishonch ko'rsatkichi (indeks),
- tasodifiy xatolik.

Modelda daromad logarifmik shaklda kiritilgan bo'lib, bu o'zgaruvchining marginal ta'sirini barqarorlashtiradi va iqtisodiy talqinni aniqroq ifodalash imkonini beradi. O'zgaruvchilar orasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilishda Pearson korrelyatsiya koeffitsienti hamda VIF (Variance Inflation Factor) indikatorlari yordamida multi-kollinerlik mavjud emasligi aniqlangan.

Statistik hisob-kitoblar STATA 17 dasturiy platformasida amalga oshirildi. Har bir koeffitsient uchun p-qiymatlar 0.01 yoki 0.05 darajasida ahamiyatli deb topildi. Modelning R^2 koeffitsienti 0.67 ga teng bo'lib, bu natija farovonlik darajasining 67 foizini model orqali tushuntirish mumkinligini anglatadi.

Tadqiqotda qo'llangan metodologiya yordamida, iqtisodiy omillarning aholining farovonligiga bevosita va bilvosita ta'siri aniqlab berildi. Bu esa, siyosiy qarorlar qabul qilishda ilmiy asoslangan yondashuvni qo'llash zarurligini tasdiqlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotida daromadlar darajasi va aholi farovonligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy ko'rsatkichlarga asoslangan tahliliy yondashuv muhim o'rin tutadi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, daromadlar hajmining ortishi farovonlikni o'z-o'zidan kafolatlamaydi. Bu jarayonda daromadlar tarkibi, ularning teng taqsimoti, inflyatsiya darajasi, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati hamda aholining real ehtiyojlari bilan uyg'unlik darajasi asosiy omillar sifatida e'tiborga olinadi.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillar davomida aholining real daromadlari o'rtacha 7–8 % sur'atda o'sgan. 2020-yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha real daromad 1 200 000 so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 2 100 000 so'mga yetgan. Bu esa 75 % dan ortiq o'sishga erishilganini anglatadi. Biroq, mazkur ko'rsatkich farovonlikni to'liq aks ettirmaydi, chunki inflyatsiya darajasi, iste'mol narxlar indeksining o'zgarishi hamda uy xo'jaliklarining iste'mol tuzilmasi aholining real xarid qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

1-jadval :Aholi farovonligini belgilovchi omillar tahlili

Ko'rsatkich (jon boshiga)	2020	2022	2024	O'sish (2020–2024)
Real daromad (so'm)	1,200,000	1,580,000	2,100,000	+75%
Inflyatsiya (yillik, %)	12.3 %	11.6 %	8.8 %	-
Real iste'mol savatchasi narxi	890,000	1,120,000	1,450,000	+63%
Iste'mol narxlar indeksi (CPI)	1.00	1.27	1.54	+54%

Farovonlikni baholashda real xarid qobiliyatini aks ettiruvchi CPI (Consumer Price Index – Iste'mol narxlar indeksi) asosida tuzilgan real iste'mol savatchasi narxi asosiy mezon sifatida xizmat qilmoqda. Garchi real



daromadlar CPI o'sishiga nisbatan yuqori sur'atda oshgan bo'lsa-da, aholining xarid qobiliyati barcha ijtimoiy guruhlar kesimida bir xil darajada emas.

Aholi daromadlari tarkibida eng katta ulushni ish haqi tashkil etadi. 2024-yil holatiga ko'ra, ish haqi umumiy daromadlarning 42,6 % ini, tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlar 22,9 % ini, ijtimoiy nafaqa va pensiyalar 14,2 % ini, qolgan 20,3 % esa boshqa manbalar (xorijdan pul o'tkazmalari, mulkdan daromadlar va boshqalar) hisobidan shakllangan.

Mazkur tarkibning tahlili ijtimoiy tabaqalanish muammosini ko'rsatib bermoqda. Ayniqsa, tadbirkorlik va investitsiyalardan daromad olayotgan qatlamlar ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar bo'yicha sezilarli ustunlikka ega, bu esa farovonlik darajasi bo'yicha tafovutlarni yanada kuchaytiradi.

2-jadval :Daromad manbalarining tuzilmasi va ijtimoiy tabaqalanish

Daromad manbasi	Ulushi (2024)
Ish haqi	42.6 %
Tadbirkorlik daromadi	22.9 %
Ijtimoiy to'lovlar	14.2 %
Boshqa (remit, renta va b.)	20.3 %

Gini koeffitsienti asosida o'lchangan daromadlar tengsizligi 2024 yilda 0.354 ni tashkil etdi, bu esa iqtisodiy adolatsizlikning o'rtacha darajada kuchayganini ko'rsatadi. Soliq siyosati, subsidiya mexanizmlari va ijtimoiy himoya tizimining barqarorligi farovonlikning ijtimoiy qatlamlarga nisbatan teng taqsimlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, daromadlarning o'sishi geografik jihatdan nomutanosibdir. Toshkent shahri va viloyatlarda ish haqi va daromadlar respublika o'rtacha ko'rsatkichlaridan ancha yuqori bo'lsa-da, ayrim viloyatlar (Qoraqalpog'iston, Surxondaryo, Jizzax)da o'rtacha daromad real iste'mol savatchasi darajasidan past bo'lmoqda. Bu esa hududiy farovonlik muvozanatini izdan chiqaradi va ichki migratsiya oqimlarining kuchayishiga olib keladi.

3-jadval:Daromadlarning hududlar bo'yicha farqlanishi

Hudud	O'rtacha daromad (so'm)	Farovonlik darajasi (sub'ektiv baho, 1–5)
Toshkent shahri	4,010,000	4.7
Andijon viloyati	2,360,000	3.1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2,110,000	2.8
Sirdaryo viloyati	2,920,000	3.9

Bunda farovonlik darajasining o'rtacha nominal daromaddan tashqari omillarga ham bog'liqligi aniqlanadi, masalan, sog'liqni saqlashga kirish, ta'lim sifati, infratuzilma holati va kommunal xizmatlar narxлари.

Quyida OLS modelida hisoblangan regressiya natijalarini tahlil qilamiz.

4-jadval:OLS modeli natijalari

O'zgaruvchi	Koeffitsient (β)	Standart xatolik	t-statistika	P-qiyamat	95% ishonch oralig'i
log(RDI)	0.291	0.067	4.34	0.000	[0.157 ; 0.425]
Ishsizlik darajasi (%)	-0.114	0.038	-2.99	0.004	[-0.190 ; -0.038]
Hayot davomiyligi (yil)	0.028	0.011	2.55	0.013	[0.006 ; 0.050]
Ijtimoiy ishonch indeksi	0.145	0.059	2.46	0.017	[0.026 ; 0.264]
Konstant (α)	0.921	0.389	2.37	0.021	[0.145 ; 1.697]

Model xususiyatlari:

- N (observations): 70
- R^2 (Determinatsiya koeffitsienti): 0.67
- F-statistika: 19.73
- Modelning umumiy p-qiyamati: 0.000

• Multikollinearlik tekshiruvi (VIF): barcha o'zgaruvchilar uchun $VIF < 2 \rightarrow$ muammo yo'q

Regressiya jadvali natijalari asosida farovonlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar tahlili shuni ko'rsatadiki, aholining jon boshiga real daromadlari farovonlikni belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Modellashtirish natijasida $\log(RDI)$ o'zgaruvchisi uchun β koeffitsienti 0.291 ga teng bo'lib, u statistik jihatdan sezilarli ($p < 0.01$) va ijobiy yo'nalishda ta'sir ko'rsatmoqda. Bu shuni anglatadiki, real daromadlarning 1 % ga oshishi farovonlik indeksining o'rtacha 0.29 punktga o'sishiga olib keladi. Daromadning logarifmik shaklda ifodalanishi uni tengsiz taqsimlangan bozor sharoitida izchil va iqtisodiy ma'noli tahlil qilishga yordam beradi.

Ishsizlik darajasi farovonlikka salbiy ta'sir ko'rsatayotgani aniqlangan. Regressiya koeffitsienti -0.114 bo'lib, ishsizlik 1 % ga oshganida farovonlik indeksining 0.11 punktga kamayishini bildiradi. Ushbu natija ishsizlikning nafaqat iqtisodiy, balki psixologik va ijtimoiy xavotirlarni ham kuchaytirishi orqali aholi farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini asoslaydi.

O'rtacha umr davomiyligi (Life Expectancy) ham farovonlik darajasiga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatmoqda. Uning koeffitsienti 0.028 bo'lib, bu sog'liq va hayot sifati yuqori bo'lgan hududlarda farovonlik darajasi yuqoriroq bo'lishini anglatadi. Sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi va sog'lom turmush tarzining keng tarqalishi ushbu bog'liqlikni mustahkamlab bermoqda.

Ijtimoiy ishonch ko'rsatkichi bo'yicha ham ijobiy va sezilarli natijalar kuzatilgan. Regressiya koeffitsienti 0.145 bo'lib, ijtimoiy kapital, o'zaro ishonch va fuqarolik ishtiroki darajasining farovonlikni oshirishdagi rolini aks ettiradi. Bu omil, fuqarolarning o'zlarini jamiyatda qadrlangan, himoyalangan va barqaror his qilishlariga xizmat qilishi bilan farovonlikka ijobiy hissa qo'shadi.

Modelning umumiy aniqlik darajasi (R^2) 0.67 ga teng bo'lib, bu farovonlik indeksidagi o'zgarishlarning 67 % ini yuqorida tahlil qilingan omillar orqali izohlash mumkinligini ko'rsatadi. Bu esa modelning iqtisodiy tahlil uchun yetarlicha tushuntiruvchan kuchga ega ekanini bildiradi. Bundan tashqari, foydalanilgan barcha o'zgaruvchilar statistik ahamiyatga ega bo'lib, ular o'rtasida ko'p kollinerlik holati aniqlanmadi ($VIF < 2$).

Ushbu tahlil daromadlar va farovonlik o'rtasidagi bevosita va bilvosita bog'liqlikni asosli tarzda tasdiqlaydi. Shu bilan birga, iqtisodiy siyosat ishlab chiqishda nafaqat daromadlar hajmi, balki ish bilan bandlik, sog'liqni saqlash tizimi sifati, ijtimoiy muhit kabi boshqa omillarni ham inobatga olish zarurligini ko'rsatadi. Farovonlikni oshirish uchun kompleks va o'zaro bog'langan strategiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekiston sharoitida aholi jon boshiga real daromad darajasi va farovonlik o'rtasida ijobiy hamda statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Empirik tahlil, xususan, oddiy chiziqli regressiya modeli asosida o'tkazilgan hisob-kitoblar, real daromadning 1 % ga oshishi farovonlik indeksining o'rtacha 0.43 punktga ko'tarilishiga olib kelishini aniqladi. Ushbu natija real daromadlar farovonlikni belgilovchi asosiy omillardan biri ekanini isbotlaydi.

Bundan tashqari, tahlilga jalb etilgan ishsizlik darajasi, o'rtacha umr davomiyligi va ijtimoiy ishonch darajasi kabi qo'shimcha omillar ham farovonlikning shakllanishida muhim rol o'ynayotgani aniqlangan. Modelning determinatsiya koeffitsienti (R^2) 0.67 bo'lib, tanlangan omillar farovonlikdagi o'zgarishlarning 67 foizini izohlab berishga qodir ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, farovonlik subyektiv tushuncha bo'lganligi sababli, daromad darajasi bilan bir qatorda boshqa omillar — sog'liqni saqlash xizmatlari sifati, xavfsizlik, ijtimoiy himoya tizimlari, ta'limga kirish imkoniyati kabi ijtimoiy omillar ham keng qamrovli tahlilga tortilishi zarurligi aniqlangan. Bu esa aholi farovonligini oshirishda faqat iqtisodiy o'sish emas, balki kompleks ijtimoiy-iqtisodiy siyosatlarning ham muhimligini anglatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilishi mumkin:

Real daromadlarni oshirish orqali farovonlikni yaxshilashga yo'naltirilgan fiskal va mehnat siyosatlarini kuchaytirish;

Ijtimoiy ishonch va xavfsizlik muhitini mustahkamlash orqali subyektiv farovonlik darajasini oshirish;

Sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlariga investitsiyalar hajmini ko'paytirish hamda ularning hududlar bo'yicha tengligini ta'minlash;

Aholining turmush darajasini kompleks baholovchi indikatorlarni ishlab chiqish va ularga asoslangan barqaror rivojlanish strategiyalarini joriy etish.

Mazkur tadqiqot farovonlikni baholashda faqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanmasdan, inson kapitali va subyektiv qoniqish omillarini ham hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Shu orqali O'zbekistonda barqaror va inkluziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga ilmiy asoslangan hissa qo'shish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev. 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan



- Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni. // www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. 2020–2024-yillar. Rasmiy statistik byulletenlar. // www.stat.uz
 3. Deaton, A. (2013). *The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality*. Princeton University Press.
 4. Easterlin, R. A. (1974). "Does Economic Growth Improve the Human Lot? Some Empirical Evidence." In *Nations and Households in Economic Growth*, edited by David P. & Melvin R. Princeton University Press.
 5. Layard, R. (2005). *Happiness: Lessons from a New Science*. Penguin Press.
 6. Sen, A. (1999). *Development as Freedom*. Oxford University Press.
 7. Stiglitz, J. E., Sen, A., & Fitoussi, J.-P. (2009). Report by the Commission on the Measurement of Economic Performance and Social Progress. // www.stiglitz-sen-fitoussi.fr
 8. Frey, B. S., & Stutzer, A. (2002). *Happiness and Economics: How the Economy and Institutions Affect Human Well-Being*. Princeton University Press.
 9. Diener, E., & Seligman, M. E. P. (2004). "Beyond Money: Toward an Economy of Well-Being." *Psychological Science in the Public Interest*, 5(1), 1–31.
 10. Корнаухова, Л. В. (2020). Уровень и качество жизни населения: методология измерения и направления повышения. – М.: Финансы и статистика.
 11. Назаров, К. Х. (2021). "Аҳоли фаровонлигига таъсир қилувчи омиллар таҳлили." *Иқтисодиёт ва таълим журнали*, №2, б. 45–51.
 12. Rahimov, A. (2022). "Daromadlar va iste'mol muvozanati: O'zbekiston tajribasi." *Iqtisodiy Tadqiqotlar jurnali*, №3(17), 32–40.
 13. World Bank. (2023). *Uzbekistan Economic Update: Managing Growth and Welfare*. Washington, D.C. // www.world-bank.org/uzbekistan
 14. OECD. (2020). *How's Life? Measuring Well-being*. Paris: OECD Publishing.
 15. United Nations Development Programme (UNDP). (2023). *Human Development Report*. New York: UNDP.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100